



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

## MAMLAKATIMIZDA KAPITAL BOZORNI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI

*Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti*

*Saidamatov Yusufjon Jalaliddin o'g'li*

*201- Menejment(Madaniy merosni boshqarish)*

*Otajonova Sabina G'ayrat qizi*

*221- Menejment(Madaniy merosni boshqarish)*


*E-mail: [saidamatovyusufjon@gmail.com](mailto:saidamatovyusufjon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni joriy etishda xalqaro miqyosda tajribali mutaxassislar va ekspertlarni jalb etgan holda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yo'l xaritalari tuzish va rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqilishi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Jahon banki, tijorat bank, investitsiya, iqtisodiyot, korxonalar, investitsiya fondlari, aksiyador, dividend, kapital bozor, moliya bozor.

Investitsiyalarni jalb etishda asosiy yo'l xaritasi hisoblanayotgan O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasini, "Buyuk kelajak" Xalqaro nodavlat va notijorat tashkiloti tomonidan ko'rsatib berilgan ma'lumotlariga asosan 2020-yilda O'zbekistonda jami investitsiyalarni hajmi 2019-yilning shu davriga nisbatan 101,5 foizni yoki 6,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarga "O'zbekistonning 2035 yilgacha rivojlanishi konsepsiyasi" loyihasi to'g'ri yo'lga quyilganidan dalolat beradi. Albatta, bu hisob kitoblarga asoslangan kelajak rejalar va bu rivojlanishni ta'minlash ko'plab muammoli munosabatlarni hal qilish orqaligina amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirishda muhim qadamlardan biri sifatida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan 2020-yilning 26-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"dagi Qarori loyihasi internet tarmog'ida muhokamaga joylashtirildi. Ushbu qaror loyihasiga ko'ra O'zbekistonda 115ta davlat ulushi mavjud korxonalarni xususiy sektorga davlat ulushini sotish taklif etilgani ijobiy holat ammo bu kabi yirik miqdorda davlat ulushini realizatsiya qilishda ba'zi tizimli yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi nazarimizda.





Ya'ni Davlat ko'chmas mulki obyektlari belgilangan shartlarda ikki oy mobaynida (E-ijro auksion" yagona elektron savdo maydonchasida) sotilmagan taqdirda, bir so'm qiymatda sotishga taklif etilgan. Albatta, bu kabi katta miqdordagi taklifni qondirish uchun investorlarda yetarli mablag'larning mavjud bo'lmashlik ehtimoli yuqori shu boisdan, Investitsiya fondlari (IF) rolini oshirish ushbu fondlarni kapital jamlash va takliflarni qanoatlantirish uchun moliyaviy resurslarni jamlashlari va nisbatan kam moliyaviy resurslari mavjud investorlarni ham ushbu savdolarda qatnashish imkoniyatlarini yaratishlari zarur nazarimizda. Chunki, ikki oy davomida 1 so'm qiymatda olingan obyektlarga investitsiyalar kiritishda yana tijorat banklari resurslariga bo'lgan talabning oshib ketishi kuzatiladi, aslida esa ushbu subyektlar harakatda bo'lmagan moliyaviy resurslarni harakatlantirish orqali xususiylashtirsa nafaqat davlat ulushi xususiy sektorga o'tib ularni rentabelligi oshiriladi balki, pul massasini yuqori darajada oshirib yubormasdan jarayonni amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirishda kapital jalb qilish mexanizmining eng asosiy dastaklaridan biri bu kapital bozorining regulyatori hisoblanadi. Albatta, O'zbekistonda ushbu faoliyatni amalga oshirish tizimi so'ngi yillarda ancha yaxshilandi ayniqsa Kapital bozorini rivojlantirish agentligining tashkil etilishi bu borada muhim qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi nazarimizda. Shu boisdan dunyo mamlakatlarida bu borada qanday amaliyotlar joriy etilganligi va ularning samaradorligini o'rganish va bu orqali O'zbekiston uchun zaruriy xulosalarga kelishimizda muhim axborot manbai bo'lsa ajab emas.

AQSHda bir vaqtning o'zida moliyaviy resurslar bozorini quyidagi 3 ta regulyator boshqaradi:

1. Qo'shma shtatlar qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi (SEC- The United States Securities and Exchange Commission);
  2. Fyucherslar bilan savdolar qumitasi (Commodity Futures Trading Committee);
  3. Milliy fyucherslar assosatsiyasi (National Futures Association)
- Ammo AQSHda 3 ta regulyator mavjud bo'lishiga qaramasdan qimmatli qog'ozlar bo'yicha yagona siyosat olib boruvchi bu Qo'shma shtatlar qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) bo'lib hisoblanadi.





Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari moliya bozoridagi munosabatlarni tartibga solish va nazorat qilishda turli yo'llardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Fikrimizcha ulardan moliya bozorini davlat organi sifatida yagona nazorat qiluvchi organ (bitta regulyator)ning mavjud bo'lishi eng samarali yo'l bo'ladi nazarimizda, chunki bunda nazorat qilish, istiqbollarni belgilash, rivojlantirish va shunga muvofiq huquqiy bazani shakllantirish bitta tizimda birlashsagina eng optimal natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari kapital bozorini tartibga solishda qabul qilingan va qabul qilinayotgan huquqiy bazani ham soddalashtirish, tartiblashtirish va jahon standartlariga moslashtirish talab etiladi. Buning uchun albatta so'ngi yillarda kapital bozorini rivojlantirish agentligi "Kapital bozorining yagona kodeksi" 3 ni amaliyotga tatbiq etish choralarini ko'rayotganligidan xabarimiz bor, bu albatta kapital bozorini tartibga solish, investorlar huquqlarini himoya qilish va yangi investorlarni iqtisodiyotimizga kapital kiritishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Alikulov, A. T. (2022). In Uzbekistan, the use of the Stock Market in Attracting Financial Resources by Corporate Entities is One of the Tools. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 66-69.

2. Rashidov, R., Turobov, S., Dustova, M., & Azamatova, G. (2020). The crisis conditions and the ways of solving them. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(7), 2104-2111.

3. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).

4. Alikulov, A. T., Iskandarovich, R. R., & Komiljon, O. (2022). O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING BARQAROR FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI BANK HIZMATLARINI JORIY ETISH. *Results of National Scientific Research*, 1(2), 62-67.

5. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.

6. Аликулов, А. Т. (2020). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ТОРГОВЛИ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА. In *Актуальные вопросы экономики* (b. 63-66).

